

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

XALQ TA'LIM VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI


OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

**60112200 – JISMONIY MADANIYAT**

bakalavriat ta'lif yo'nalishining

**MALAKA TALABLARI**

Toshkent – 2022



## **ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:**

- Toshkent davlat pedagogika universiteti.

## **TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2022 yil «28» 08 dagi 5 - sonli yig‘ilishida ma’qullangan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022 yil «9» 09 dagi 302 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

## **JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’lim vazirligi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.

Mazkur Malaka talabi oliy ta’limning Davlat ta’lim standarti, Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori, O‘zbekiston Respublikasi Milliy malaka ramkasi va kasb standartlariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talabini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’lim vazirligi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r	b et
1. 60112200-Jismoniy madaniyat bakalavriat ta'lim yo'naliшining umumiyl tasnifi .....	4
1.1. Qo'llanish sohasi.....	4
1.1.1. 60112200-Jismoniy madaniyat ta'lim yo'naliшhi Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari	4
1.2. 60112200-Jismoniy madaniyat yo'naliшhi bo'yicha bakalavrлar kasbiy faoliyatlarining tasnifi .....	4
1.2.1. 60112200-Jismoniy madaniyat ta'lim yo'naliшhi bo'yicha bakalavrлar kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2. 60112200-Jismoniy madaniyat ta'lim yo'naliшhi bo'yicha bakalavrлar kasbiy faoliyatlarining ob'yektlari .....	4
1.2.3. 60112200-Jismoniy madaniyat ta'litm yo'naliшhi bo'yicha bakalavrлar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4. 60112200-Jismoniy madaniyat ta'lim yo'naliшhi bo'yicha bakalavrлarning kasbiy vazifalari.....	5
2. 60112200-Jismoniy madaniyat ta'lim yo'naliшhi bo'yicha bakalavrлarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....	6
2.1. Umumiyl kompetensiyalar.....	6
2.2. Kasbiy kompetensiyalar .....	6
2.3. Kasbiy kvalifikatsiyalar .....	7
Bibliografik ma'lumotlar.....	

## **1. 60112200-Jismoniy madaniyat bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiy tasnifi**

*60112200-Jismoniy madaniyat* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular tayyorlash kunduzgi, sirtqi ta’lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta’lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me’yoriy muddati 3 yil.

### **1.1. Qo‘llanish sohasi.**

#### **1.1.1 60112200-Jismoniy madaniyat ta’lim yo‘nalishi Malaka talabining qo‘llanilishi.**

Malaka talabi *60112200-Jismoniy madaniyat* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular tayyorlovchi barcha oliy ta’lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

- mazkur ta’lim yo‘nalish bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilari;

- ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasi va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim tashkilotining talabalari;

- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatlari davlat organlari;

- oliy ta’lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

- oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatlari davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

### **1.2. 60112200-Jismoniy madaniyat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tasnifi.**

#### **1.2.1. 60112200-Jismoniy madaniyat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining sohalari:**

*60112200-Jismoniy madaniyat* – pedagogika sohasidagi yo‘nalish bo‘lib, - umumiy o‘rta ta’lim məktəb o‘qituvchisi kasb standartiga muvofiq umumiy o‘rta ta’limda jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi maqomida pedagogik faoliyat olib borish;

- o‘rta maxsus va professional ta’limda jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi sifatida pedagogik faoliyat olib borish;

- jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid ilmiy-tadqiqot institutlarida mustaqil tadqiqotchi sifatida ilmiy-pedagogik tadqiqot ishlari bilan shug‘ullanish, davlat

boshqaruv organlari, boshqa davlat va nodavlat muassasalarida vazirlik va tashkilot ma'naviy-ma'rifiy bo'limlarida faoliyat yuritish;

- umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus, professional ta'limi muassasalari uchun bakalavriat ta'lim yo'naliishi bo'yicha pedagogik kadrlar tayyorlash jarayonida foydalaniladigan fanlar, pedagogik faoliyat vositalari, usullari, metodlari;

- O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida hamda mustaqil tadqiqotchi sifatida ilmiy-pedagogik tadqiqot ishlari bilan shug'ullanish;

- ommaviy axborot vositalari, davlat boshqaruvi organlari, boshqa davlat va nodavlat muassasalarida kasbiy faoliyat yuritish kabi kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

#### **1.2.2. 60112200-Jismoniy madaniyat ta'lim yo'naliishi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining ob'yektlari:**

- ta'lim jarayoni; o'qitishning pedagogik texnologiyalari va metodlari;
- ta'limning nazariy masalalari; o'qitish metodikasi;
- loyihalashtirish asosida o'quv jarayonini boshqarish texnologiyalari, ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini loyihalashtirish va tashkil etish jarayoni, shaxsiy va kasbiy axborot maydonini shakllantirish jarayoni, mактабдан tashqari ta'lim muassasalari ta'lim-tarbiya jarayoni; ta'lim sohasidagi muammolar va ularning yechimlarini topishni tashkil etish jarayoni; ta'limni boshqarish va pedagogik jarayonni tashkil etish;
- mos ixtisoslik bo'yicha ilmiy-tadqiqot jarayonlari, ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlari jarayoni;

#### **1.2.3. 60112200-Jismoniy madaniyat ta'lim yo'naliishi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- *pedagogik*;
- *ilmiy-tadqiqot*;
- *ma'naviy-ma'rifiy*;
- *tashkiliy-boshqaruv*;

#### **1.2.4. 60112200-Jismoniy madaniyat ta'lim yo'naliishi bo'yicha bakalavrarning kasbiy vazifalari.**

60112200-Jismoniy madaniyat ta'lim yo'naliishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'yektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

—umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litseylar, texnikumlarda «Jismoniy madaniyat va sport»ga oid fanlardan o'rnatilgan tartibda dars berish;

—maktabgacha ta'lim tashkilotlari, umumiy o'rta ta'lim maktablari, kasb-hunar maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va texnikumlarda jismoniy tarbiya o'qituvchisi hamda mактабдан tashqari muassasalarda jismoniy tarbiya yo'riqchisi va targ'ibotchisi;

—ta'lim tizimida kabinet mudiri, laborant va unga tenglashtirilgan

lavozimlarda ishlash;

— mos ta'lim yo'nalishlar bo'yicha ta'limni amalga oshiruvchi vazirliklar, uning tarmoq boshqarmalari va muassasalarida metodist, mutaxassis va boshqa lavozimlarda ishlashi;

— jismoniy madaniyat yo'nalishidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlarida kichik ilmiy xodim bo'lib ishlash;

— mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari hamda joylardagi ma'naviyat va ma'rifat markazlarida ishlash;

— ishlab chiqarish sohalarida, kasbiy ta'lim pedagogikasi va texnologiyasi, o'qitishning didaktik vositalarini ishlab chiqish va amaliyatga joriy etish.

#### **Pedagogik faoliyatida:**

— ta'lim mazmunini belgilash tamoyillari va mezonlariga rioya etish, o'quv materiallarini tanlash va tizimlashtirishga doir zamonaviy yondashuvlarni hisobga olish, o'quv materiallarini modellashtirish;

— yaxlit pedagogik jarayonning umumiy qonun, qonuniyat va tamoyillariga amal qilish, jismoniy tarbiya ta'lim-tarbiya jarayonida tashkiliy, psixologik, didaktik qonuniyatlarining uyg'unligiga erishish;

— ta'lim-tarbiya jarayoni tarkibiy qismlari (maqsad, natija, mazmun, shakl, metod va vosita)ning o'zaro aloqadorligi va umumiyligini hisobga olish;

— ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning asosiy va yordamchi shakllaridan unumli foydalanish; o'quvchilarning bo'sh vaqtini samarali tashkil etish va o'tkazish;

— jismoniy tarbiya jarayonida ta'lim-tarbiyaning xilma-xil metodlarini, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni oqilona tanlay olish, ijodiy yondashuv asosida metod va texnologiyalarining milliy mentalitetga mosligini ta'minlash.

#### **Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

— ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda ta'lim yo'nalishlaridagi fanlar va ularni o'qitish metodikasiga oid mavzularda tadqiqot olib borish;

— internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;

— ta'lim yo'nalishlaridagi fanlarga oid ilmiy to'plamlar, mahalliy va chet el ilmiy-tadqiqot yutuqlarini o'rghanish;

— ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;

— ma'lumotlarni jamlash, qayta tayyorlash, mavzu bo'yicha ilmiy ma'lumotlarni tizimli tahlil qilish;

— tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etish.

#### **Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatida:**

— ma'naviy-ma'rifiy ishlarni rejalashtira olishi, uni tashkil etish metodikasini egallah, o'quvchilar ongiga milliy istiqlol g'oyasini singdirish;

— o'quvchilarda mafkuraviy va axborot xurujlariga qarshi immunitetni yuzaga keltirish metod va texnologiyalarini bilishi;

— globallashuv sharoitida kechayotgan jarayonlarda axborot

kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni va ta'siri haqida tushuntirish ishlarni olib borish;

– mahallalarda ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha individual suhbat o'tkazish;

– milliy urf-odat va marosimlarni o'tkazishda, umuminsoniy qadriyatlar, mehr-muruvvat, bag'rikenglik, vatanparvarlik, sadoqat kabi yuksak insoniy fazilatlarni ochib berish.

### **Tashkiliy-boshqaruv faoliyatda:**

– pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalangan holda ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish;

– atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;

– jamoada ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarish;

– fikrlar har xil bo'lgan sharoitda to'g'ri qaror qabul qilish;

– bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijalarini baholash.

## **2. 60112200-Jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

### **2.1. Umumiy kompetensiyalar:**

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tessavvurga ega bo'lishi.

- Pedagogikani kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

### **2.2. Kasbiy kompetensiyalar:**

• yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

• inson organizimi, yosh fiziologiyasi, psixologiyasi va morfologiyasining salomatligiga oid bilimlarga ega bo'lishi;

• bolalar va turli yoshdagilarni jismoniy tarbiyasida jismoniy mashqlarni

to‘g‘ri tanlash, me’yorlash va ulardan samarali foydalanish usullari va metodlarini bilishi;

- ta’lim muassasalarida va mahallalarda ommaviy jismoniy tarbiya va sport sog‘lomlashtirish tadbirlarini tashkil etish hamda o‘tkazishga doir bilimlarga ega bo‘lishi;
- jismoniy tarbiya va sport sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borishga oid dastlabki ma’lumotlarga ega bo‘lishi;
- sport turlaridan mashq‘ulotlar tashkil etish va o‘tkazishga doir bilimlarga ega bo‘lishi;
- sport inshootlari va jihozlarining turlari, ulardan to‘g‘ri foydalanishga doir bilimlarga ega bo‘lishi;
- sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati yuzasidan yetarlicha amaliy malakalarga ega bo‘lishi;
- mahallalarda ayollar va xotin-qizlar sog‘lom turmush tarzini tashkil qilish haqida nazariy hamda amaliy bilimlarga ega bo‘lishi kerak.

### 2.3. Kasbiy kvalifikatsiyalar:

Jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat ta’lim jarayonida ilmiy pedagogik faoliyat olib borishi, jismoniy tarbiya va sport sohasida o‘qituvchilik hamda murabbiylit faoliyatini olib borish, davlat va nodavlat tashkilotlarda jismoniy tarbiya va sport ishlarini boshqarish, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya yo‘riqchisi, sport maktab internatlarda sport turlari bo‘yicha murabbiylit faoliyatini olib borish kvalifikatsiyalariga ega bo‘lishi mumkin.

O‘quv davrining umumiy hajmi quyidagicha taqsimlanishi maqsadga muvofiq:

O‘quv jarayonining tarkibiy qismlari	Hafta soni
Nazariy va amaliy ta’lim	30
4 kun nazariy ta’lim, 2 kun amaliyot	60
Attestatsiyalar	12
Amaliyotlar	12
Kredit tiziimi bilan tanishish	6
Ta’til	32
<b>JAMI</b>	<b>152</b>

## Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

### Tayanch so'zlar:

Davlat ta'lif standarti, malaka talablari, o'quv reja, kompetensiya, modul, kasbiy faoliyat sohasi, kasbiy faoliyat ob'yekti, kasbiy faoliyat turi, amaliyot, amaliyot ob'yekti, kadrlar sifati, yuklama, yuklama hajmi. Kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lif yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'yekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturlari, profil, o'qib-o'rghanish natijalari, o'quv davri menejment, tarmoqlar va sohalar, malaka talablari, bakalavriatning o'quv jarayoni, sifatni baholash va nazorati, jismoniy tarbiya, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lif muassasasi, ta'lif jarayoni, boshqaruv jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni, jismoniy yuklama, jismoniy yuklama hajmi, mashq, texnika, taktika, vosita, musobaqa, hakam, o'yin, jismoniy madaniyat, jismoniy tarbiya, jismoniy rivojlanish, jismoniy kamolot, sport.

**Malaka talabini ishlab chiqishda foydalanilgan kasb standarti:**

Kasb standarti nomi	Kasbiy faoliyat turi	Kasb standartining qayd qilish raqami	Kasb standartini amaliyotga joriy etish sanasi
Umumiy o'rta ta'lim mifik o'qituvchisi	Umumiy o'rta ta'lim pedagogik faoliyat	R.003.1286/T-21	23.08.2021 №332 ICh

*Manba: Kash standartlari reestiri. Manba: Kash standartlari reestiri. https://pionerstandart.uz/ru/ru/Standart/129/*

**Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda  
kadrlar iste'molchilari**

**ISHLAB CHIQILGAN:**

Toshkent davlat pedagogika universiteti




**KELISHILGAN:**

OO'MTV huzuridagi Oliy ta'limni  
rivojlantirish idqiqotlari va ilg'or  
tehnologiyalarni tadbiq etish markazi



**Kadrlar buyurtmachisi:**


O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi  
vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim  
markazi



Qo'qon davlat pedagogika instituti



**60112200-jismoniy madaniyat bakalavriat ta'lif yo'nalishi bo'yicha ishlab  
chiqilgan malaka talabi mazmuni bo'yicha ishchi guruhi**

Nº	Ishchi guruh raisi va a'zolari	A'zolarning F.I.Sh	Lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni	Imzo
1	Rais	X.Sh.Kadirov	Nizomiy nomidagi TDPU o'quv ishlari bo'yicha prorektor.	
2	Rais o'rinnbosari	A.Xazratkulov	Nizomiy nomidagi TDPU Boshlang'ich ta'lif fakulteti dekani	
3	a'zo	U.R.Radjapov	Nizomiy nomidagi TDPU jismoniy tarbiya va sport kafedrasи mudiri	
4	a'zo	T.B.Zayniddinov	Nizomiy nomidagi TDPU jismoniy tarbiya va sport kafedrasи dotsenti.	
5	a'zo	B.B.Nigmanov	Nizomiy nomidagi TDPU jismoniy tarbiya va sport kafedrasи dotsenti.	
6	a'zo	F.T.Miraxmedov	Nizomiy nomidagi TDPU jismoniy tarbiya va sport kafedrasи dotsenti v.b.	

O'quv ishlari bo'yicha prorektor

  
X.Sh.Kadirov

O'quv-me'yoriy hujjatlarni  
takomillashtirish bo'limi boshlig'i

  
B.Dj.Sattarova

Fakultet dekani

  
A.Xazratkulov